



## ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Avezova D.*

*Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi  
kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** yozma nutq, og‘zaki nutq, matn, ijodiy matn yaratish, bo‘g‘in, metod, infografika.

**Ключевые слова:** письменная речь, устная речь, текст, создание творческого текста, слог, метод, инфографика.

**Key words:** written speech, oral speech, text, creative writing, syllable, method, infographics.

**Kirish.** Davlat ta’lim standartida “Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”ligi qayd etilgan[1].

Ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bilan bir qatorda ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga, mustaqil, erkin fikrlashga o‘rgatish o‘qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim mazmuni va shakllarini yangilashga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Metodist olimlar olib borgan tadqiqot ishlari yuzasidan o‘quvchilarining yozma nutqining o‘zaro shaxsiy mezonlarga muvofiq rivojlanishida quyidagilar keng samara ko‘rsatadi deb baholashadi.

- √ Tasavvurning shakllanishi;
- √ Ko‘p kitob o‘qish;
- √ So‘zlab berish;
- √ Prinsipial mashqlar;
- √ Ijodiy yaratuvchanlik.

Hozirgi kunda amal qilinayotgan DTS[2]da bitiruvchilar(A2)ning yozma nutqiga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'lib, ularda yozma nutqqa xos o'ta umumiy maqsadlar belgilanganligini ko'rish mumkin:

- *so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi;*
- *140-160 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, 20-25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi;*
- *bayonga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi;*
- *matnda badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalana oladi;*
- *husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.*

Yangi avlod darsliklarining yaratilishiga asos vazifasini bajarib kelayotgan Milliy o'quv dasturi[3]da esa o'quvchilarning yozma nutqiga qo'yiladigan talablar quyidagi mazmunda berilgan:

OTBMT.YN.1 *o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;*

OTBMT.YN.2 *turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa/hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish;*

OTBMT.YN.3 *materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;*

OTBMT.YN.4 *yoza nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish;*

OTBMT.YN.5 *matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;*

OTBMT.YN.6 *imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.*

**Muhokama.** Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan farqlanadi.[4]

Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi.

Har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma'lumotni dekodlaydi yoki o'z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko'nikmasi tajriba asosida shakllanadi. Mazkur



xulosa sun'iy ong yaratishga urinishning dastlabki paytida vujudga kelgan. Olimlar hatto shaxmat o'ynashdek o'ta mantiqiy jarayonda ham tajriba hal qiluvchi ahamiyatga egaligini qayd etganlar. Boshqacha aytganda, qoidani yodlash har doim ham uni amalda samarali qo'llashni ta'minlaydi degani emas. Insonning til malakalarini qanday namoyon qilishi vaziyat, tinglovchi, ruhiy holat, kayfiyat, taassub kabi omillar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekan, nutq jarayonida bu omillarni va ularning ta'sirini farqlay olish nutqning nazorat qilinishini qoidalarga nisbatan yaxshiroq ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'rta ta'limda ona tili darslari eshitib va o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishi kerak[5].

Ona tili darslarida yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishda quyidagi topshiriq va metodlar samarali hisoblanadi.

**Topshiriq.** Ushbu topshiriqda o'quvchilar qisqa vaqtda jadvalda berilgan bo'g'inlardan so'zlar hosil qilishi, hosil qilingan so'zlar ishtirokida gaplar tuzishi, gaplar ishtirokida esa matn yaratishi kerak bo'ladi. Bu topshiriq o'quvchilardan hamkorlikda ishlashni, tezkorlik, hozirjavoblikni talab qiladi.

### “G'IJIMLANGAN QOG'OZ” METODI

Bu metod ham o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishga va sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab olishga yordam beradi. Har bir sinfdagi uchraydigan nisbatan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishda ham bu metod samaralidir.

Quyida metod mazmuni va undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar bilan tanishamiz.

O'quvchilarni uch guruhga bo'lib, 1-partada o'tirgan o'quvchilarga A4 formatdagi bir dona oq qog'oz taqdim qilinadi va o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu asosida hikoya matni tayyorlashlari kerak bo'ladi. Masalan, “Bobomning nasihatlari”, “Ilmsizlik zulmati”, “Do'stlikning qudrati” va h.k. Har bir ma'lumot yozgan o'quvchi quyidagi 2 ta qoidaga amal qilishi lozim:

- 1) o'zidan oldingi o'quvchi tomonidan yozilgan ma'lumotni takrorlamasligi;
- 2) ma'lumotni yozib bo'lgach, qog'ozni g'ijimlab keyingi o'quvchiga uzatishi.

Barcha o'quvchilar ma'lumotlarni yozib bo'lgach, eng orqa qatorda o'tirgan oxirgi o'quvchi hikoyani o'qib beradi.

Ushbu metoddan foydalanish jarayonida mavzuga oid ma'lumotlar qayta-qayta takrorlanadi va o'quvchilar bu mavzuni hech qachon unutmaydigan darajada yodlab, tushunib olishlariga yordam beradi.

Metoddan kutilayotgan natijalar:

- √ yozma nutqni rivojlantiradi:

- √ diqqat va xotirani rivojlantiradi;
- √ ilmiy bilish, tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantiradi.

### “INFOGRAFIKA” METODI


Berilgan rasm asosida infografikaga asoslangan matn yozing.



Kutilayotgan natijalar:

- yozma nutqni rivojlantiradi;
- dunyoqarashni kengaytiradi;
- kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- turli vaziyatlardan chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**Topshiriq.** *Ko‘rsatilgan usulda qog‘ozdan samolyot maketini yasang. Yasash jarayoni haqidagi nutqingizni yozma bayon qiling.*



*Ushbu topshiriq o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga hamda og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan.*

**Xulosa.** Ona tili darsliklarimizning mazmuni o‘quvchilarda to‘rt lisoniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan iborat. Bu topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil ravishda ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalay olishga undaydi.



### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 14-son.
2. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 69 b.
3. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. O'zbek tili. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2020. – 76 b.
4. Samiyeva M.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish usullari. "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari; T.– 2020
5. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T.:–2020. 57-b.
6. <http://natlib.uz> (O'zbekiston milliy kutubxonasi)

### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqiga qo'yilgan talablar, yozma nutqning og'zaki nutqdan farqi hamda o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va ularning qo'llanilishi xususida so'z boradi.

### РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о требованиях к письменной речи учащихся на занятиях по родному языку, о отличии письменной речи от устной, а также о методах, направленных на развитие навыков письменной речи учащихся и их применении.

### SUMMARY

This article talks about the requirements for students' written speech in native language classes, the difference between written speech and oral speech, and methods and applications aimed at developing written speech.